

**AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMIDA TURIZMNI  
RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

*Xasanov Xojimurod To'yhiboy o'g'li*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi mustaqillikdan keyingi yillarda olib borilgan turizmni rivojlantirishdagi say harakatlar natijasi qanday ta'sir etayotganligi hamda bu jarayonlarda qanday muammolarga duch kelinganligi shu bilan birga ularga yechimlar topilganligi va topilayotganligi hususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'z:** Haydar ko'li, Maxsus «Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi direksiyasi», "sayyohlik xaritasi", Kamping, "tashrif qog'oz".

**PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN  
THE AYDAR-ARNASOY LAKE SYSTEM**

*Xasanov Xojimurod To'yhiboy o'g'li*

*Student of Chirchik State Pedagogical University*

**Abstract:** In this article, Aydar-Arnasoy lake system is affected by the results of various activities in the development of tourism carried out in the years after independence, and what problems were encountered in these processes, and solutions were found and are being found.

**Key words:** Haydar Lake, Special "Directorate of Aydar-Arnasoy Lakes System", "tourist map", Camping, "tourist paper".

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi (Haydar ko'li va Aydar ko'li deb ham nomlanadi) - Nurota tizma tog'larining shimoliy etagidagi ko'l. Haydarko'l 1960-yillar oxirida asosan Janubiy Qozog'istonning Chordara suv omboridan oqib kelgan ortiqcha suvlar hisobidan paydo bo'lgan. 1969-yilgacha Haydar sho'rxogi (botig'i)da mayda sho'r ko'llar va sho'rlar keng tarqalgan edi. Ayrim olimlar Haydar sho'rxogini Sirdaryoning qadimiy o'zani deb hisoblaydi.

1968-1969yillarda yog'ingarchilikning haddan tashqari ko'p bo'lishi tufayli Sirdaryo oqimining bir qismi (qariyb 21 km<sup>3</sup>) Chordara suv ombori va Arnasoy orqali Aydar botig'iga oqizildi, chunki Orol dengiziga oqizish uchun shuncha suv Sirdaryo o'zaniga sig'mas edi. Haydarko'l shu tariqa tashkil topdi. Haydarko'l tor yo'laklar orqali Tuzkon va Arnasoy ko'llari bilan tutashgan. Haydarko'l Jizzax viloyatidagi Oqbuloq, Sangzor daryosining Qiyli tashlamasi, Chordara suv ombori va Arnasoyga

quyilayotgan Markaziy Mirzacho'l tashlamasi oqimi hisobiga to'yinadi. 1994-1995yillarda qish va bahorda Chordara suv omboridan katta hajmda suv kelishi natijasida Arnasoy, Tuzkon va Aydar ko'llarining suv maydoni 184 mingdan 320 ming gektarga yetdi. Suvining minerallasuv darajasi 1 litrda qariyb 12-15 gramm va undan ortiqdir. Qozog'istonning Chordara suv omboridan ortiqcha suv Aydarko'lga yuborilsa, toshqin xavfi tug'ilishi mumkin. 2005-yilning fevral oyida shunday vaziyat yuzaga kelgan. Suv toshqinlarining oldini olish maqsadida Aydarko'lda to'g'on qurilgan. Bundan tashqari, Qozog'istonda 2008-11-yillarda qurilgan Ko'ksaroy suv omboridan tashlanadigan suv ham Haydarko'lda toshqin xavfini tug'diradi. Shu sabab oshiqcha suvni oqizish uchun Qozog'iston hukumati har safar O'zbekiston hukumatidan ruxsat so'raydi. Ikkinchi tarafdin, ayrimlar Ko'ksaroy sabab Haydarko'lga yetarlicha suv bormasligi mumkinligini aytib keladi. Qo'shimcha qilib ayganda yiliga o'rtacha 3 ming tonnadan ziyod baliq ovlanmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 22.04.2019 yildagi 347-son qarori aholining baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hududda hayvonot va o'simlik dunyosi muhofazasini kuchaytirish, turizm salohiyatidan unumli foydalanish maqsadida qabul qilingan. Buning uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

➤ hududda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan biologik resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;

➤ Tizimning biologik xilma-xilligini saqlash hamda suv havzalarida yetishtirilishi mumkin bo'lgan yangi baliq turlarini baliqchilik sanoatiga kiritish;

➤ hududga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda baliqchilik klasterlarini tashkil etish orqali baliq yetishtirish, qayta ishlash, qadoqlash, saqlash va eksport qilishni jadal rivojlantirish;

➤ Ko'llar tizimini mamlakatimizdagi baliq chavoqlarini yetishtiruvchi asosiy hududlardan biriga aylantirish;

➤ havaskor va sport baliq ovi turizmini, turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, sayyohlarga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini oshirish.

Ushbu yo'nalishlar baliqchilikni ham rivojlantirishga qaratilgan bo'lsada asosiy e'tibor turizmni rivojlantirishga qaratilgan. Maxsus «Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi direksiyasi» tuzulgan va u Bosh praktura huzurida tashkil etilgan asosiy maqsa iqtisodiy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish edi. Albatta bu hududlarga katta investitsiyalar kutilayotgan edi. Shunisi qiziqki 1 oy ichida hududning joylashishini ifodalovchi batafsil elektron xaritasi ishlab chiqilishi kerak edi.



*1-rasm. Aydar-Arnasoy ko‘llari sohili.*

Keyingi yillarda noqonuniy baliq ovlash darajasining ortishi, suv tarkibining sho‘rlashishi va suv sathining pasayishi Aydar-Arnasoyda qo‘shimcha chora tadbirlar ko‘rishga olib keldi va Prezidentning 22.02.2022 yildagi “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-141-son qarori qabul qilindi. Qarorda kamida 30 mln AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritish va qororning ijrosini taminlash bilgilab olingi. 2021-yildagi bir nutqida Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va «Aydar-Arnasoy» ko‘llar tizimida qo‘shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish bo‘yicha, 300 million dollarlik loyihalar amalga oshirilib, 25 ming ish o‘rinlari yaratiladi - dedi Shavkat Mirziyoyev. Bundan kelib chiqib o‘tgan yillarda davomida ko‘plab loyihalar amalga oshirildi.

Hozirga kelib turizmni rivojlantirishda juda katta ishlar olib borildi va olib borilmoqda. Yaqinda Uzbekistan.travel sayiti o‘zining bir “maqolasida” Hamma narsani unutish uchun qayerga borish kerak - Arnasoy ko‘llariga mavzusidagi reklama banerlarini internet sayitiga yukladi. Bu ham ko‘plab fuqarolar tomonidan iliq kutub olindi va unga qiziquvchilar sonini oshirdi. Albatta bular rivojlanishda shaxtam qadam bo‘ldi desa ham bo‘ladi lekn bizning mamlakat haligacha aytarli boshqa mamlakatdan keladigan turistlarni Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga qizziqtira olmayapti. Aytish kerakki tashrif buyuruvchilarning soni oshib bormoqda ammo juda sekinlikda. Bu esa o‘z navbatida turizm marketingning oqsoqlanayotganini ko‘rsatmoqda.

Vazirlar Mahkamasining keyingi qarori pilyaj turizmini rivojlantirishga qaratildi. Aydarko‘l havzasi atrofidagi davlat dasturini amalga oshirish maqsadida Aydarko‘l havzasi atrofidagi mavjud va paydo bo‘layotgan kurortlarning “sayyohlik xaritasi” ishlab chiqilishi hamda tadbirkorlarga ko‘plab yengilliklar berildi. Pilyaj zonalarini tashkil etish besh yil ichida amalda oshirilish belgilab olindi. Keyingi yillarda pilyajlarga boruvchilar soni sezilarli oshdi. Hatto ko‘plab Tur agentliklar va Tur operatorlar Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga ko‘plab tur paketlarini tashkil qilishmoqda. Kampinglardan va mehmonxonalardan foydalanish ham ko‘payib bormoqda. Kelasi muammolar bo‘lib asosiy o‘rinlarda suv havzalarining ifloslanishi, suv sathining

kamayishi va suvning sho'rlanishi turibdi. Albatta bu kabi muammolarni ko'plab yo'llar orqali hal qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda Aydar-Arnasoy ko'llar tizmi yaqin o'tmishdan tariximizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ko'plar ish o'rinlari yani insonlar hayoti va flora va fauna ushbu ko'l bilan bevosita bog'liqdir.

Kelasi yillarda turizm sohasida kuzarilayotgan ayrim muammolar o'z yechimini topar ekan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimiga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar soni ham oshishi haqiqatdan yiroq emast. Ko'plab Yevropa, Amerika va Janubiy Osiyo kabi mamlakatlarning asosiy turizm sohasi bo'lgan suv turizmni ham O'zbekistonda "tashrif qog'oz" iga aylansa ajab emas. Muhimi shuki ko'lning sohillarida turizmni rivojlantirishda deyarli barcha sharoitlar yetarlichadir va kerakli ishlar sekinlik bilan ammo to'xtovsiz olib borilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Vazirlar Mahkamasining 22.04.2019 yildagi 347-son qarori bilan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining (bundan keyin – Tizim) biologik resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.
2. Prezidentning 22.02.2022 yildagi "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-141-son qarori qabul qilindi.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 iyundagi 368 -sonli "O'zbekiston Respublikasida suvda dam olish va plyaj turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.